



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 17-avgust, shanba,
95 (23.972)-son

KUN
HIKMATI

Vijdon -
qonunlarda
qayd
etilmaydigan
norma

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



BIZ BIR BO'LSAK — YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK — VATANMIZ!

Mehnat faxriylari taqdirlandi

Prezidentimiz tomonidan 2017-yilda “Mehnat faxriysi” ko'krak nishonini ta'sis etish to'g'risida”gi qarori qabul qilinganidan buyon viloyatimizdan 421 nafar nuroniy mazkur nishon bilan taqdirlangan. Bu yil ularning safi yana 68 nafarga ortdi.



34 nafar nuroniy I darajali, 23 nafari II darajali va 11 nafari III darajali “Mehnat faxriysi” ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Viloyat hokimligida turli sohalarida ko'p yillar mehnat qilgan samarqandlik otaxonu onaxonlarni taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Unda “Nuroni” jamg'armasi respublika boshqaruvi raisi, O'zbekiston Qahramoni Sodiqjon Turdiyev, viloyat hokimining birinchi o'rinbosari Feruz Abilov va boshqalar so'zga chiqib, nuroniylarning ijtimoiy-madaniy hayotimizdagi o'rni, ularning faolligini oshirish, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida fikr bildirdi.

— Keksalar ogohlik qo'ng'irog'idir, - deydi I darajali “Mehnat faxriysi” ko'krak nishoni sohibi Abdulla Bar-noyev. — Biz har narsaga “qarsak” chaladigan odam bo'lmagimiz kerak. Aksincha, jamiyatning vijdoni bo'lishimiz, unda bo'layotgan ishlarga tanqidiy nigoh bilan qarang, adashganlar va yoshlarga to'g'ri yo'lni ko'rsata bilishimiz lozim. Bugungi e'tirof bu boradagi mas'uliyatimizni yanada oshiradi, deb o'ylayman.

Faxriylarning suhbatlari bir piyola choy ustida davom etdi.

A.BAROTOV.



Faol tadbirkorlar mukofotlandi

Viloyat hokimligida Prezidentning 2024-yil 14-avgustdagi “Tadbirkorlar kuni munosabati bilan soha vakillaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida”gi farmoni hamda “Faol tadbirkor” ko'krak nishoni bilan taqdirlash to'g'risida”gi farmoyishi bilan taqdirlangan samarqandlik tadbirkorlarga mukofotlar topshirildi.

Tadbirida viloyat hokimi Erkinjon Turdimov ishtirok etib, faol ishbilarmonlarni e'tirof bilan tabrikledi.

Tegishli hujjatlarga muvofiq, Samarqand shahridagi “Ahmadbek Qurilish trio” mas'uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori Ilhom Rustamov “Do'stlik” ordeni, Urgut tumanidagi “Bekmez carpet” mas'uliyati cheklangan jamiyati direktori Umarjon Ibodullayev va Payariq tumanidagi “Silver green tea” oilaviy korxonasi direktori Shokir Eshonqulov “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi. Shuningdek, sakkiz nafar joylarda aholi farovonligini ta'minlashga munosib hissa qo'shayotgan tashabbuskor tadbirkorlar “Faol tadbirkor” ko'krak nishoni bilan mukofotlandi.

— 10 yildan beri qurilish sohasida

ishlayman, - deydi Ilhom Rustamov. — O'tgan yili “Faol tadbirkor” ko'krak nishoni bilan taqdirlangandim. Bu yil davlat mukofotiga munosib ko'rishibdi. 200 nafardan ortiq ishchilarim bor. Bundan keyin ham tadbirkorlar uchun yaratilgan sharoitlardan unumli foydalanib, jamiyatimiz, davlatimiz ravnaqiga hissa qo'shishda davom etamiz.

— Men asli kulolman, tadbirkorlikni shu hunarim asosida yo'lga qo'yganman, - deydi “Samarqand keramika cherepitsa” mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Abdullabi Nabiye. — Bugungi kunda biz ishlab chiqarayotgan milliy keramika mahsulotlari butun respublika bo'ylab sotiladi. Xaridorlarimiz kun sayin ko'payib bormoqda. Bugungi e'tirof menga yangi kuch va g'ayrat bag'ishladi.

Okrug saylov komissiyalari tarkibi tasdiqlandi

**SAYLOV
2024
27-OKTABR**
MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

Viloyat hududiy saylov komissiyasi-ning navbatdagi majlisida xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashiga saylov o'tkazuvchi okrug saylov komissiyalarini tuzish to'g'risidagi masala ko'rib chiqildi.

Saylov kodeksining 21-moddasiga ko'ra, okrug saylov komissiyasi tegishli hududiy saylov komissiyasi tomonidan saylovga kamida yetmish kun qolganida komissiya raisi, rais o'rinbosari, kotibidan va komissiyaning olti-sakkiz nafar boshqa a'zolaridan iborat tarkibda tuziladi.

— Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashiga saylov o'tkazuvchi okrug saylov komissiyalari a'zolariga nomzodlar xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlarining majlislarida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun e-saylov tizimi orqali bizga, ya'ni viloyat hududiy saylov komissiyasiga taqdim etilgan, - dedi viloyat hududiy saylov komissiyasi raisi o'rinbosari Sanjar Nazarov. — Taqdim qilingan ma'lumotlarga ko'ra, okrug saylov komissiyalari tarkibi jami 660 kishidan iborat bo'lib, ular jamoatchilikning obro'li vakillari hisoblanadi. 268 nafari (41 foizi) xotin-qizlar. 427 kishi (65 foiz) avval saylov komissiyalari ishida qatnashgan, bu borada tajribaga ega. Mutaxassisligi bo'yicha komissiya a'zolarining 334 nafari (51 foizi) pedagog, 87 nafari (13 foizi) iqtisodchi, 56 nafari (8 foizi) shifokor, 32 nafari (5 foizi) muhandis xodimlar.

Yig'ilishda xalq deputatlari viloyat Kengashiga saylov o'tkazuvchi 60 ta okrug saylov komissiyasi tarkibini tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qilindi. Okrug saylov komissiyasi tarkibi ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi belgilandi.

Viloyat hududiy saylov komissiyasi matbuot markazi.

INDALLOSINI AYTGANDA...

Olim TOSHOYEV,
adib:

— Ona tili haqida kimlarningdir qosh-qovog'iga qarab gapiryapmizmi, bilingki, bu xalqning qaddini ko'tarish qiyin bo'ladi, o'zbek tilining chinakam Davlat tili bo'lishi paysalga solinaveradi.



“Sharq taronalari” Registonda o'tkaziladi

26-30-avgust kunlari Samarqandda “Sharq taronalari” XIII xalqaro musiqa festivali bo'lib o'tadi. Mazkur san'at bayramiga tayyorgarlik jarayonlari, bu yilgi festivalning o'ziga xos xususiyatlari va tashkiliy masalalarga bag'ishlangan matbuot anjumanida batafsil ma'lumot berildi.

Viloyat hokimi o'rinbosari Rustam Qobilov dastlab bu yilgi festival Samarqand xalqaro turizm markazi hududidagi “Boqiy shahar” majmuasida o'tkazilishi aytilgani va keyinchalik yana Registon maydoniga ko'chgan haqida izoh berdi.

— Ramziy ma'noda aytadigan bo'lsak, “Sharq taronalari” Registon maydonida tug'ilgan va festival haqida gap borganda avvalo, ko'z oldimizga ushbu muazzam majmua keladi, - dedi R.Qobilov. — Qolaversa, boshqa joyda Registondagi singari bunday tabiiy, hech qanday bezak va dekoratsiyalarsiz sahna yaratish qiyin. Festivalda qatnashadigan xorijlik san'atkorlar va mehmonlar ham avvalo, Registonni tomosha qilish, bu yerdagi sahna betakrorligidan bahramand bo'lish uchun kelishadi. Shu va boshqa jihatlar hisobga olinib, festivalni Registonda o'tkazishga qaror qilindi. Shovqin va boshqa omillarning tarixiy obidaga zarar yetkazishi masalasi Madaniyat vazirligi huzuridagi madaniy meros agentligi mas'ullari va mutaxassislari tomonidan o'rganilib, ularning xulosalari inobatga olingan holda zarur choralar ko'rilmogda.

— Festivalga tayyorgarlik ishlari bir necha yo'nalishlar bo'yicha olib borilmoqda, - deydi Madaniyat vaziri o'rinbosari Murodjon Majidov. — Bu festival qatnashchilari va mehmonlarini kutib olishdan boshlab, ularni mehmonxonalariga joylashtirish, transport xizmati ko'rsatish, hamrohlik qiladigan ko'ngillilarni tanlash,

tadbirlarda ishtirok etishlarini ta'minlash va kuzatishgacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Har bir yo'nalish bo'yicha mas'ullar va ishchi guruhlar tashkil etilgan. Ular tasdiqlangan reja asosida o'z vazifalarini bajarmoqda. Bu ishlar vazirligimiz tomonidan tashkil etilgan shtabda har kuni monitoring qilib borilmoqda. Ishtirokchilar haqida aytadigan bo'lsak, shu paytgacha 70 dan ortiq davlatdan 300 nafardan ziyod vakil bu yilgi festivalda qatnashish istagini bildirdi. Ishtirokchi davlatlar 80 ga yaqin bo'lishi kutilmoqda.

“Sharq taronalari” XIII xalqaro musiqa festivalining tantanali ochilish marosimi 26-avgust kuni Samarqand shahridagi Registon maydonida o'tkaziladi. Ayni paytda repetitsiya jarayonlari qizg'in pallada. Yurtimizning taniqli rejissyor va san'at ustalari tomonidan ochilish marosimi dasturi tayyorlanmoqda.

27, 28, 29-avgust kunlari xalqaro musiqa festivali ishtirokchilarining ko'rik-tanlovda chiqishlari namoyishi ko'zda tutilgan. Ularning dasturlari xalqaro hay'at tomonidan professional (klassik) darajadagi xalq musiqasi va qo'shiq yo'nalishi hamda zamonaviy musiqa va qo'shiq yo'nalishi bo'yicha baholanadi. 30-avgust kuni festival g'olib va sovrindorlarini taqdirlash marosimi bo'ladi va ular ishtirokida konsert dasturi namoyish etiladi.

An'anaga ko'ra, festival doirasida 27-28-avgust kunlari ilmiy-amaliy anjuman, milliy cholg'u asboblari ko'rgazmasi o'tkaziladi.



26-30-avgust kunlari Samarqandda bo'lib o'tadigan “Sharq taronalari” XIII xalqaro musiqa festivalida O'zbekiston nomidan ishtirok etuvchi ijodkorlarni aniqlash maqsadida respublika ko'rik tanlovi o'tkazildi.

Viloyat musiqali drama teatrida o'tkazilgan tanlovda 18 va undan yuqori yoshdagi 60 nafarga yaqin ijodkor to'rt yo'nalishda mahoratini sinovdan o'tkazdi. Har bir ishtirokchi hakamlar hay'ati tomonidan baholab borildi va birinchi o'rinni egallagan 4 nafar ishtirokchi “Sharq taronalari” festivalida O'zbekiston Respublikasi nomidan ishtirok etish uchun yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Professional (klassik) darajadagi xalq musiqasi yo'nalishida g'oliblik Toshkent shahridagi “Maqom bend” jamoasi va O'zbekiston davlat simfonik orkestr qoshidagi milliy mumtoz ansambliga nasib etdi. Professional (klassik) darajadagi xalq qo'shiqi yo'nalishida navoiylik Sherzod Mardonov, zamonaviy kompozitorlar tomonidan yaratilgan musiqa yo'nalishida O'zbekiston davlat simfonik orkestri qoshidagi milliy mumtoz ansambli naychisi Toshkentir Shukrullayev hamda zamonaviy kompozitorlar tomonidan yaratilgan qo'shiq yo'nalishida buxorolik Gulchiroy Baxshilloeva g'olib bo'ldi.

F.RO'ZIBOYEV.



Bugundan havo harorati salqinlasha boshladi. Kechasi 17—22 daraja iliq, kunduzi 30—35 daraja issiq bo'ladi.

18-avgustda ayrim joylarda qisqa muddatli yomg'ir yog'adi, momaqaldiroq bo'ladi. 19—20-avgust kunlari yog'ingarchilik bo'lmaydi. Ushbu kunlarda harorat kechasi 15—20 daraja iliq, kunduzi 27—35 darajagacha issiq kuzatiladi.

Samarqand gidrometeorologiya boshqarmasi.



Ajratiladigan nafaqalar miqdori yetarli mi?

Nogironligi bo'lgan shaxslar va ularga g'amxo'rlik qiluvchi fuqarolar uchun qonunchilikda belgilangan yagona imtiyozlarning ro'yxati 120 ga yaqin.

Xususan, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun oliy ta'lim muassasalarida davlat granti asosida qo'shimcha qabul kvotasi ajratilishi belgilangan. Nogironligi bo'lgan, o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish qobiliyatini qisman yoki to'liq yo'qotgan va o'zgalarning doimiy parvarishiga muhtoj bo'lgan shaxslarga ularning uyida hamda vakolatli davlat organlarining ixtisoslashtirilgan statsionar muassasalarida qonunchilikda belgilangan tartibda xizmatlar ko'rsatiladi. Nogironligi bo'lgan shaxslar sanatoriya-kurortda bepul dam olish, shuningdek, dori vositalari, nogironligi bo'lgan shaxslarni parvarish qilish uchun mo'ljallangan tibbiy buyumlar va nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus shifobaxsh oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanish huquqiga ega.

Shuningdek, qonunchilgimizda nogironligi bo'lgan yoshlarga bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarigacha (17 million so'm) subsidiya ajratilishi, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarning mulkida bo'lgan mol-mulk 60 kvadrat metr doirasida soliq solishdan, yer solig'idan ozod qilinishi, uy-joy olishida, bandligini ta'minlash masalalarida va yana boshqa sohalarida ham bir qator imtiyozlar ko'zda tutilgan.

Doim nogironlarga ajratilayotgan nafaqalar yetarli, deb o'ylardim, hatto imtiyozlar juda ko'p berilgani haqida ham fikrlarim bor edi. Aniqrog'i, joriy yilning fevral oyiga qadar shunday hisoblardim. 5-fevral kuni ertalab rahbarimiz ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bo'lgan fuqarolar holidan xabar olishimizni, shu hafta davomida har bir tuman va shahardan 5 ta manzilga kirib chiqishga ulgurishimiz lozimligini ta'kidladi.

Partiyaning tuman, shahar kengashlari raislari, deputatlari bilan maslahatlashib boradigan manzillar ro'yxatini shakllantirdik. Dastlab Past Darg'om tumanida boshlangan ishimizni Ishtixon tumanidagi uchrashuv bilan yakunladik. Xonadon ahli bilan suhbatlashib, ularning muammolarini tingladik, mutasaddilar bilan bog'lanib, ko'tarilgan masalalar yuzasidan suhbatlashdik. Xullas, qay bir tuman yoki shaharga bormaylik, xonadon ahlining murojaati ijobiy yechim topishi uchun harakat qildik. Homiyar ko'magida dori-darmon vositalari, oziq-ovqat mahsulotlari topshirildi. Odatda bu kabi xayrli tadbirlardan so'ng qushdek yengil bo'lib, g'ayratimizga g'ayrat qo'shilgandek bo'lardi. Ammo bu safar unday bo'lmadi, ishxonaga qaytguncha yo'lda hamma jim, bir so'z demasdan keldi.

Ba'zan aholi bilan uchrashuvlar chog'ida to'rt muchasi sog', zabardast o'g'il farzandlari bor, topish-tutishi o'ziga yetib turgan bo'lsa-da, bepul uy-joy, moddiy yordam so'rayotganlarni ham ko'rganmiz. Xizmat safari davomida esa moddiy qiyni ahvolda yashayotgan bo'lsa-da, boriga sabr qilib, qo'ni-qo'shni,

mahalla ahldan hayo qilib, davlat idoralari-dan biror narsa talab qilishga imyanib turgan, aslida yashash tarzi bir ahvoldagi insonlarga guvoh bo'ldik. Avvalo, ulardagi bir xislat - Alloh bergan sinovni chiroyli, sabr bilan yengayotganlariga tahsin aytdik. Biror muammon-giz bormi, deb so'raganimizda imyanibgina dori-darmoni uchun yordam bersangiz bas, deganlari ham bo'ldi. Ba'zilar esa hamma narsasi yetarli ekanligini, davlatimiz tomonidan shart-sharoitlar yaratib berilayotganidan mamnunligini izhor qildi.

Ishtixon tumanida bo'lganimizda Murodobod mahallasida yashab kelayotgan, I guruh nogironlari Tohir Norbekov hamda Zamira Norbekovalarning holidan xabar oldik. Ular-niing yolg'iz boquvchisi O'ktam Norbekovning ikki nafar voyaga yetmagan farzandi bor, turmush o'rtog'i opasiga, o'zi ukasiga qarayotganligi tufayli biror joyda ishlash olmaydi.

Tegishli tashkilotlar yordamida fuqaroga homiylik asosida dori-darmon vositalari, moddiy yordam yetkazildi. Ketar chog'imizda T.Norbekov shu yoshga qadar Samarqandni ikki marta ko'rgani, agar imkoni bo'lsa, akasi va o'zi uchun sanatoriya yo'llanma olib berishni so'radi.

- Akam bilan dam olib, davolanib kelsak. Akam ham xursand bo'lsin, deyman. Bizga qarayman, deb qiynalib qoldi, - deydi T.Norbekov.

Murojaat asosida partiya viloyat kengashi raisi H.Oqbo'tayev mutasaddi tashkilotlar bilan gaplashib, masala ijobiy hal etiladigan bo'ldi. Ammo oradan ko'p o'tmay, sanatoriya uchun yo'llanma qolib ketdi, T.Norbekov salomatligi yomonlashib, vafot etgani xabarini oldik...

Aholi murojaatlarini o'rganish chog'ida nogironligi bo'lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar tomonidan kommunal to'lovlarni to'lash uchun ham amaliy yordam so'rab qilingan murojaatlar bo'ldi.

Viloyatda 11737 nafar I guruh nogironi bo'lsa, ularning 335 nafari tug'ma nogironlar ro'yxatida turadi. Muloqotlar davomida I guruh bolalikdan yoki tug'ma nogiron bo'lgan shaxslarning oylik nafaqasi miqdorini oshirish kerak, degan xulosaga keldik. Nega?

Chunki I guruh nogironlari uchun dori-darmonning o'ziga anchagina pul sarflanadi. Bundan tashqari, oziq-ovqat, kundalik ehtiyojlari hisobga olinsa, har oyda bir dunyo pul kerak bo'ladi. Amalda esa ularga 893 ming so'm to'lanadi.

Bundan tashqari, I guruh nogironi bo'lgan, "Temir daftar"da ro'yxatda turuvchi oilalar-niing farzandlari uchun jamoat transportidan imtiyozli foydalanish imkoniyatini yaratish, ayni shu toifadagi shaxslar uchun kommunal to'lovlariga imtiyozlar kiritilishi lozim.

Lola SAYIDOVA,
"Adolat" SDP viloyat kengashi
raisi o'rinbosari.

Davlat ramzlariga hurmatsizlik qilyapmiz

Davlatimiz ramzlarida istiqlolimiz, xalqimizning sha'ni, g'ururi, or-nomusi, tarixiy xotirasi va orzu-umidlari aks etgan. O'zini shu yurt farzandi deb bilgan har inson uchun bu cheksiz faxr-iftixor sanaladi. Biroq keyingi paytda davlatimiz ramzlariga hurmatsizlik qilinayotganiga tez-tez guvoh bo'lyapmiz.

MADHIYANI TINGLASHNING HAM QOIDASI BOR

Amerikada yashaydigan tanishimning aytishicha, AQSh oilalarida ertalabki nonushta yoki kechki ovqat paytida televizorda gimn ijro etilsa, hamma o'rnidan turib, qo'lini ko'ksiga quyib, birgalikda kuylar ekan. Chunki bu yurtga, millatga hurmat belgisi hisoblanarkan. Biz esa madhiya tinglashni oddiy holdek qabul qilamiz. Hatto madhiya yangrasa ham unga nisbatan hurmatsizlik ko'rsatamiz.

Yaqinda oliygoh bitiruvchilariga diplom topshirildi. Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbirlarning birini yoritdik. Unda bitiruvchilarning ota-onalari va yaqin qarindoshlari ham ishtirok etdi. Tadbir boshlanishidan oldin boshlovchi hamma joyini egallashini va birozdan keyin davlat madhiyasi yang-rashini e'lon qildi. Madhiya boshlangandan so'ng tadbir ishtirokchilarini suratga olar ekanman, kimdir telefonda yoki o'zaro gaplashayotgani, birov ko'ksiga qo'lini qo'ymagani va yana kimdir orqada o'tirib olganiga guvoh bo'ldim.

Aytish joizki, bu yerda faqat odamlarning emas, balki tadbir tashkilotchilarining ham aybi bor. Tadbirlarni tashkil etishdan oldin milliy mentalitetimizga putur yetkaziladigan jihatlar e'tiborga olinishi va oldindan bu haqda o'ylanishi kerak. Zotan, "O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasida "O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi ko'pchilik huzurida ijro etilganda, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, hozir bo'lgan kishilar madhiyani tik turib va o'ng qo'l kaftini ko'krakning chap tomoniga qo'yib, harbiy yoki davlatning boshqa xizmatidagi maxsus kiyimdagi shaxslar esa qo'lini bosh kiyimiga qo'yib tinglaydi", deb belgilab qo'yilgan. Afsuski, keyingi paytda bu qoidalarga amal qilinmayapti va nafaqat davlatimiz madhiyasi, balki davlatimiz gerbi hamda bayrog'iga ham hurmatsizlik ortib bormoqda.

DAVLATIMIZ RAMZLARI MILLIY VALYUTAGA OYOQ OSTI QILISH UCHUN TUSHIRILMAGAN

Gerb — bu bir davlatni boshqalardan ajratib turadigan nishoni, ramzi va timsolidir. Gerb qaysi davlatga tegishli bo'lsa, o'sha davlatning tarixiy an'analarni ifodalovchi ramziy ahamiyatga ega bo'lgan tasvirlar yig'indisidan iborat. Mamlakatimiz gerbidagi har bir rang, chiziqli, belgi chuqur ramziy ma'noga ega. Jumladan, gerbning pastki qismida, davlat bayrog'ini eslatuvchi chambar bandida zarhal harflar bilan barchamiz uchun aziz va muqaddas bo'lgan «O'zbekiston» so'zi bitilgan. Davlat bayrog'i esa bir parcha mato emas. U jasorat, or-nomus, shon-sharaf belgisi, mustaqilligimiz timso-li, unda o'zligimiz mujassam. Ana shularning barchasi milliy



Davronbek xalqaro matematika musobaqasi sovrindori

**26-31-iyul kunlari Hindistonda xalqaro matematika musobaqasi bo'lib o'tdi. Dunyoning 30 ta davlatidan 576 nafar o'quvchi ishtirok etgan bilimlar bellashuvida o'zbekistonlik o'quvchilar 3 ta oltin, 4 ta kumush va 11 ta bronza medalini qo'lga kiritdi. Sovrindorlar qatorida Kattaqo'rg'on tumanidagi 48-maktabning 9-sinf o'quvchisi Davronbek Diy-
orov ham bor.**

Davronbek musobaqada katta yoshlilar jamoasida ishtirok etib, bronza medalini qo'lga kiritdi. Xo'sh, Davronbek bu natijaga qanday erishdi?

- Yoshligimdan matematika faniga qiziqaman, - deydi u. - Ikkinchi sinfda beriladigan misol va masalalarni maktabga bormasdan o'rganganman. Otam iqtidorimni ko'rib, to'rtinchi sinfligimda qo'shimcha darsga bergandi. Yuqori sinfga o'tgach, tuman, viloyat, respublika olimpiadalarida ishtirok etib kelyapman. Jumladan, o'tgan yil Toshkentda o'tkazilgan yosh matematiklar xalqaro olimpiadasida ikkinchi o'rin bilan kumush medalni qo'lga kiritgan edim. Hindistondagi xalqaro matematika musobaqasida esa bronza medali nasib etdi. Rosti, musobaqa oson bo'lmadi. Chunki AQSh, Kanada, Yaponiya, Koreya, Malayziya, Singapur kabi dunyoning eng kuchli yosh matematiklari bilan bellashishga to'g'ri keldi va harakattarim besamar ketmadi, sovrindorlar qatoridan joy oldim. Kelajakda matematika bo'yicha jahon olimpiadasi g'olibligini qo'lga kiritishni va xalqaro darajadagi iqtisodchi bo'lishni maqsad qilganman. Davronbek erishayotgan yutuqlarda uning ustози Alisher Toshvening xizmatlari katta. Keyingi to'rt yilda Alisher akaning 30 nafarga yaqin shogirdi oliygoh talabasi bo'lgan.

- 20 yildan buyon ta'lim sohasida ishlayman, - deydi Kattaqo'rg'on tumanidagi 48-maktab matematika fani o'qituvchisi Alisher Toshev. - Darsdan keyin repititorlik qilaman va aksariyat shogirdlarim oliygohga o'qishga kirgan. Davronjonning otasi Dilmurod aka bilan bitta maktabda ishlaymiz. Otasi uni menga qo'shimcha mashg'ulotga bergandi. Uch yildan buyon fan olimpiadalarida va xalqaro tanlovlarda sovrin yutamiz. Davron yosh bo'lishiga qaramay, xotirasi juda kuchli, intiluvchan, o'z ustida ishlashni yaxshi ko'radi va uning bu harakatlari o'z samarasini ko'rsatayapti. 30 davlatning eng bilimli matematiklari o'rtasida uchinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Uning yoshida bu juda katta natija.

F.RO'ZIBOYEV.

Yangi baholash tizimining afzalliklari nimada?

Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi islohotlardan biri yangi baholash tizimi bo'lib, ayrim maktablar shu tizimga o'tmoqda. Yangi baholash tizimi 2022-2023-o'quv yilida Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligiga qarashli Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarda joriy etilgan edi. 2023-2024-o'quv yilida esa ushbu maktablardan tashqari respublika bo'yicha 500 ta, xususan, Samarqand viloyatida 68 ta umumta'lim maktabida tatbiq etildi. 2024-2025-o'quv yilida qoniyatdagi yana 50 ta maktab yangi baholash tizimiga o'tishi rejalashtirilgan.

Dastlab yangi baholash tizimiga o'tayotgan maktablarda ushbu tizim bo'yicha seminarlar tashkil etiladi va ixtisoslashtirilgan maktablarning malakali o'qituvchilari-dan iborat trenerlar biriktiriladi. Masalan, 2023-2024-o'quv yilida yangi baholash tizimiga o'tgan maktablarga Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablarning malakali trenerlari biriktirildi. Ular yil davomida o'zlariga biriktirilgan maktablarda seminarlar tashkil qilib, metodik yordam va tavsiyalar berib borishdi. Keyingi yangi baholash tizimiga o'tadigan maktablar ham xuddi shunday tartibda tayyorlanadi.

Yangi baholash tizimida har bir dars, topshiriq, nazorat ishi, imtihon o'zining aniq baholash mezoniga asoslanganligi bilan an'anaviy baholash tizimidan keskin farq qiladi. Endi o'qituvchining roli asosan, bilim berishga qaratilib, o'quvchining bilimini baholashga aralashmaydi. O'quvchining bilimini baholash aniq ishlab chiqilgan qoidalar asosida to'g'ridan-to'g'ri shaffof tarzda baholana-di. Shuningdek, har bir nazoratdan so'ng nazorat ishlari tahlil qilinib, past o'zlashtirgan o'quvchining bo'shlig'ini aniqlash mexanizm-



lari ishlab chiqilgan.

O'quvchi har bir fandani 1 chorak davomida minimal 30 balndan maksimal 100 ball oralig'idagi balti qo'lga kiritishi kerak bo'ladi. Shundan 50 ballni fan yuzasidan biror bob yoki bo'lim tugagandan so'ng bitta yoki bir nechta BSB (bob yoki bo'lim bo'yicha summativ baholash) nazoratida, 40 balni chorak yakunida bitta ChSB (choraklik bo'yicha summativ baholash) nazoratida, qolgan 10

balni esa har kunlik FB (formativ baholash) da qo'lga kiritishi lozim bo'ladi.

Bu baholashda amaliy mashg'ulot va loyiha ishlarini bajarishga, ular orqali asosiy muammoni topib, xulosalar chiqarishga katta e'tibor qaratilgan.

Yangicha baholash tizimi o'qituvchi uchun har bir o'quvchiga zamon talabi bo'yicha individual yondashish, o'zlashtirish sust o'quvchilarning past o'zlashtirish sabablarini ko'ra olish, o'quvchining har bir harakatiga, intilishiga, bilimiga haqqoniy baho qo'yish imkonini beradi. Shuningdek, yangi baholash tizimi o'qituvchini vijdonan ishlashga chorlaydi. Har bir o'quvchining ishini aniq mezon asosida tekshirish orqali ularga adolatli baho qo'yishga majbur qiladi. Bu baholash tizimida o'quvchining to'g'ri bo'lmagan fikrlari uzil-kesil rad etilmasdan, balki noto'g'ri fikrlar inobatga olinadi va ularga ham muayyan ballar beriladiki, bu o'quvchini darsda imkon qadar faol ishtirok etishga, noto'g'ri javoblar ustida ishlashga undaydi.

O'quvchiga qo'yiladigan ballar olgan bilimi, amaliyotda qo'llashi va mulohaza yurita olishiga qarab taqsimlanadi. Shu sababli yangi baholash tizimi bo'yicha olingan har bir nazorat o'quvchini mustaqil tarzda o'z ustida ishlashga, olgan bilimlarini amaliyotda bog'lashga, xulosalar chiqarib, mulohaza yuritishga, kreativ fikrlashga undaydi.

Qahramon MELIKULOV,
viloyat maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi bosh metodisti.

Ularga sentabr oyidan boshlab oshirilgan miqdorda pensiya pullari tarqatiladi. 2024-yil 12-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, 2024-yilning 1-sentabridan boshlab pensiya va nafaqalar miqdori 15 foizga oshirilishi belgilandi.

Samarqandda pensiya oluvchilar salkam 430 ming kishi

Bunda:

- pensiyani hisoblashning bazaviy miqdori – oyiga 428 ming so'm,
- yoshga doir eng kam pensiya miqdori – oyiga 834 ming so'm,
- nogironlik pensiyalarining eng kam miqdori – oyiga 920 ming so'm etib belgilandi.

Shu bilan birga:

- ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi nogironlik pensiyasining eng kam miqdori - oyiga 920 ming so'm,
- mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nogironlik nafaqasi va bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslarga beriladigan nafaqa miqdori – oyiga 920 ming so'm,
- 1941-1945-yillardagi urush oqibatida nogiron bo'lgan shaxslar va uning qatnashchilari, shuningdek, fashistlar konslagerining voyaga yetmagan sobiq mahbuslari va Leningrad shahri qamal qilingan davrda ishlagan shaxslarning eng kam pensiya miqdori ustamalarni inobatga olgan holda – oyiga 4 million 56 ming so'm,
- belgilangan yoshga doir eng kam pensiya miqdoridan (834 ming so'mdan) 920 ming so'mga cha pensiya oluvchilarning yoshga doir pensiyalari miqdori - oyiga 920 ming so'm.

- zarur ish stajiga ega bo'lmagan keksa yoshdagi fuqarolarga beriladigan nafaqa miqdori - oyiga 745 ming so'm,

- ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi yoshga doir pensyaning eng kam miqdori qo'shimcha to'lovni hisobga olgan holda – oyiga 745 ming so'm,



- o'zgarlar parvarishiga muhtoj bo'lgan 18 yoshga cha nogiron bolalarning parvarishi bilan band bo'lgan bolaning qonuniy vakiliga beriladigan nafaqa miqdori – oyiga 745 ming so'm,
- boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi oluvchilarning bir nafar mehnatga qobiliyatsiz oila a'zosi uchun nafaqa miqdori – oyiga 745 ming so'm etib belgilanib, keyingi har bir nafar mehnatga qobiliyatsiz oila a'zosi uchun – 244 ming so'mdan qo'shiladigan bo'ldi.
- boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi oluvchilarning bir nafar mehnatga qobiliyatsiz oila a'zosi uchun nafaqa miqdori oyiga 745 ming so'm etib keyingi har bir nafar mehnatga qobiliyatsiz oila a'zosi uchun – amaldagi tartibga muvofiq pensiya hisoblanishi va to'lanishi belgilandi.

Viloyat pensiya jamg'armasi hisobida bugungi kunda pensiya oluvchilar soni 429628 kishini tashkil qiladi. Shundan:

- yoshga doir pensiya oluvchilar - 362353 nafar,
- nogironlik pensiyasi oluvchilar - 41962 nafar,
- boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi oluvchilar – 25313 nafar.

Pensiya jamg'armasi boshqarmasi va uning tuman (shahar) bo'limlarida ushbu farmonning ijrosini ta'minlashga kirishildi. Joriy yilning sentabr oyida yuqorida keltirilgan toifadagi barcha fuqarolar oshirilgan miqdordagi pensiya pullarini olishlari kafolatlanadi.

Abdurashid RAHIMOV,
budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi viloyat boshqarmasi shu'ba rahbari.

O'qituvchi va o'quvchi mojarosi

Ular o'z huquq va majburiyatlarini bilganida edi...

Keyingi yillarda mamlakatimizda pedagog xodimlar va o'quvchi yoshlarning huquq va erkinliklarini mustahkamlash maqsadida qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Yangi tahrirdagi Bosh qomusimizda ham har kimning ta'lim olish huquqi bilan bir qatorda, pedagoglarning maqomi, sha'ni, qadr-qimmatini davlat muhofazasida ekanligi belgilab qo'yildi. Ammo shunga qaramay, ijtimoiy tarmoqlarda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi turli nizoli holatlar aks etgan videolar tarqalmoqda.

Ustozlarga nisbatan o'quvchi va ota-ona tomonidan bo'layotgan tazyiq va haqoratlar, o'z navbatida, o'qituvchilarning yoshlarga nisbatan jismoniy zo'rlik ishlatishi holatlarining davom etayotganligini inkor etib bo'lmaydi. Xo'sh, aslida qanday bo'lishi kerak edi?

Ayni kunda pedagoglarning huquq va majburiyatlarini belgilab beruvchi asosiy hujjat "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonun hisoblanadi. Unga ko'ra, pedagog ta'lim tashkilotida qonunchilik hujjatlariga muvofiq tuzilgan mehnat shartnomasi asosida ta'lim va tarbiya sohasida kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi hamda tegishli ma'lumotga, kasbiy tayyor-garlikka va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir. Hujjatda pedagogning huquqlari, sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida ekanligi, ta'lim oluvchilar va ularning ota-onalari tomonidan pedagogning kasbiga hurmat bilan munosabatda bo'lish lozimligi belgilangan.

Biroq bu pedagog uchun axloqiy talablar yo'q degani emas. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 31-avgustdagi buyrug'i bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining takomillashtirilgan namunaviy odob-axloq qoidalarini"da tegishli talablar aniq keltirilgan. Xususan, uning 13-bandida o'qituvchi o'quvchilarga nisbatan jismoniy kuch ishlatishi yoki ruhiy tazyiq o'tkazishi,

o'quvchining shaxsiga doir ma'lumotlarni o'quvchilarning oldida muhokama qilishi, uni ommaviy izza qilishi, ularning ota-onasi bilan shaxsiy adovatga borishi mumkin emasligi belgilangan. Shuningdek, pedagog tomonidan o'quvchilarni darsdan sababsiz chiqarib yuborish yoki kiritmaslik, ularning shaxsiyati, qadr-qimmatini kamsitish taqiqlanadi. Qonun hujjatlariga ko'ra, ular o'quvchilarni jazolash maqsadida jismoniy kuch ishlatish yoki ruhiy tazyiq o'tkazish, ichki tartib va kiyinish madaniyatiga rioya qilmaydigan, uyga berilgan vazifalarni tayyorlab kelmagan o'quvchilarni sinfdoshlar yoki muassasa jamoasi oldida muhokama qilishi mumkin emas. Shu o'rinda o'quvchi ham ta'lim muassasasida bo'lish, yurish-turish va muomala madaniyatiga rioya qilishi, xodimlarga hurmatda bo'lishi talab qilinadi.

Aytish joizki, qonunchiligimizda har ikki tarafning ham huquq va majburiyatlari, ularga qo'yilayotgan axloqiy talablar aniq belgilangan. Agar o'qituvchilar yangi o'quv yilida ular bilan yaqinroq tanishib, faoliyatida dasturilamal sifatida foydalansa, qolaversa, o'quvchilarga ham uning mazmuni tushuntirib borilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Sardor BAXRIDDINOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi.



REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

Rabbano YO'LDOSHEV

Samarqandning fidoyi farzandlaridan biri, oliy toifali neyroxirurg, O'zbekiston Respublikasi neyroxirurglar assotsiatsiyasi a'zosi, tibbiyot fanlari nomzodi Rabbano Yo'ldoshev 82 yoshida vafot etdi.

Rabbano Yo'ldoshev 1942-yilning 28-iyul kuni Ishtixon tumanining Tal-lak qishlog'ida tug'ilgan. 4-maktabni tamomlab, dastlab jamoa xo'jaligida yoshlar brigadasida ishladi. 1961-yilda Samarqand davlat meditsina institutiga o'qishga qabul qilingan. Ish faoliyatini Ishtixon tumani markaziy shifoxonasida jarroh sifatida boshlagan.

R.Yo'ldoshev klinik ordinaturani tugatgach, meditsina institutining 1-klinikasi neyroxirurgiya bo'limida ordinator, bo'lim mudiri bo'lib ishladi. Bilimi va sohada to'plagan tajribasi tufayli Samarqand temiryo'l xodimlari, viloyat ortopediya va shikastlanish oqibatini davolash hamda Samarqand harbiy shifoxonalarida neyroxirurg-konsultant bo'lib ishladi. 1986-yildan Samarqand davlat meditsina instituti neyroxirurgiya kursida faoliyat yuritdi.

1984-yilda Rabbano Yo'ldoshev Moskvadagi tibbiyot fanlar akademiyasiga qarashli markaziy neyroxirurgiya institutida fan nomzodi ilmiy darajasini oldi.

Og'ir va mas'uliyatli vazifalarni bajarish barobarida R.Yo'ldoshev 100 dan ortiq ilmiy maqola, 12 taklif, 10 o'quv-uslubiy qo'llanma yozdi. Bazarriy hamda amaliy bilimlarni oshirib, nogiron ustoz uzoq yillar davomida viloyatdagi qator tibbi-



yot muassasalarida faoliyat ko'rsatdi. Ko'plab yoshlarga ustozlik qildi. Xususan, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish markazi viloyat filialining sanitar aviatsiya bo'limida qo'shni Jiz-zax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Navoiy viloyatlari, sharoit taqozo qilgan paytlarda esa bir necha bor qo'shni Tojikis-tonning Panjakent tumanidagi bemor-larga neyroxirurgik yordam ko'rsatdi. O'lis hududlarda uning qo'lidan shifo topgan insonlarning hisobi yo'q.

Keyingi paytlarda Rabbano Yo'ldoshev Samarqanddagi "Biolayf" xususiy klinikasi-da faoliyat ko'rsatib kelayotgan edi.

Tibbiyot xodimi degan sharaflini nomga umrbod sodiq qolgan Rabbano Yo'ldoshevning yorqin xotirasi qalbi-mizda abadiy saqlanadi.

SAMARQAND VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH BOSHQARMASI.

DA'VOLAR BO'LSA...

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Mamatkulova Adiba Ravshanovnaga (2022-yil 15-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Ermatov Ilxom Jamalovichga (2023-yil 29-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher

Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 35-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Toxirov Nuriddin Toxirovichga (2017-yil 15-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasida marhum Imomova Dinaxol Tursunovnaga (2023-yil

AKSIYADORLAR DIQQATIGA!

"Sino" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi 2024-yil 24-avgust kuni soat 10:00 da Samarqand shahri Spitamen shohko'chasi, 270-uy manziliida joylashgan jamiyat ma'muriy binosi majlislar zalida o'tkaziladi.

KUN TARTIBIDA:

- Jamiyatning boshqaruv strategiyasi aksiyadorlik jamiyati sifatida turganligi sababli jamiyatni rivojlantirish uchun qabul qilinadigan qarorlarga to'siqslar mavjud. Qarorlar o'z vaqtida bajarilishiga noqulayliklar borligi hamda kelgusida barqarorlikni ta'minlash maqsadida jamiyat mulkchilik shaklini aksiyadorlik jamiyatidan ma'suliyati cheklangan jamiyatga o'zgartirish masalasi;
- Jamiyatni qayta ro'yxatdan o'tkazish va ulushlarni qayta ko'rib chiqish. Jamiyatda mavjud aksiyadorlar paketlari ovozga qo'yilib, paketlarni to'g'ri-

dan to'g'ri ulushlarga aylantirish hamda mutanosib tarzda ulushdornlarni jamiyatga ta'sischi-lar sifatida qayta ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida;

- Jamiyat aksiya paketlari bo'yicha mavjud aksiyadorlar ma'lumotlarini aniqlash hamda aksiyadorlar reestrini qayta ko'rib chiqish masalasi;
- Jamiyat aksiyadorlari yig'ilishlarga to'liq va o'z vaqtida qatnasha olmayotganligi qabul qilinayotgan qarorlar hamda korxonani rivojlantirish strategiyasiga ta'sir qilmoqda. Shuning uchun jamiyat mulkchilik shaklini ma'suliyati cheklangan jamiyatga

o'zgartirish holatiga jamiyat aksiyadorlari quydagicha ko'rsatilishi nazarda tutilmoqda:

- "SAXARI" MCHJning 3 347 812 dona aksiya paketi mavjud. Bir dona aksiya qiymati 200 so'mni tashkil etgan bo'lib, umumiy qiymati 669 562 400 so'mni tashkil etadi. "SAXARI" MCHJ jamiyatning asosiy ta'sis-chisi sifatida qayta ro'yxatdan o'tkaziladi;
- Boltaev Dilmurod Nasrullo o'g'lining 417 651 dona aksiya paketi mavjud. Bir dona aksiya qiymati 200 so'mni tashkil etgan bo'lib, umumiy qiymati 83 530 200 so'mni tashkil etadi. Jami-

yatning ikkinchi ta'sis-chisi sifa-tida qayta ro'yxatdan o'tkaziladi;

- Qolgan 55 nafar aksiyadorlarning 4 589 dona aksiya paketlari mavjud. Bir dona aksiya qiymati 200 so'mni tashkil etgan bo'lib, umumiy qiymati 917 800 so'mni tashkil etadi. Jamiyatning qolgan ta'sis-chilari sifatida qayta ro'yxatdan o'tkaziladi.

Jamiyatning barcha ta'sis-chilari kelajakda jamiyat rivojlan-gan taqdirda, reestrga asosan dividendlar mutanosib tarzda taq-simlanib borishini ma'lum qilamiz.

Murojat uchun telefonlar: +99897-894-00-40, +99899-587-87-37.

"SAMARQAND VILOYAT AGROSERVIS MTP" MCHJ TA'SISCHILARI DIQQATIGA!

"Samarqand viloyat agroservis MTP" mas'uliyatli cheklangan jamiyati ta'sischilarining navbatdagi umumiy yig'ilishi 2024-yil 20-avgust kuni soat 10:00 da Samarqand shahri R.Hoshimov ko'chasi, 26-uy manziliida joylashgan jamiyat ma'muriy binosi-da o'tkaziladi.

Ta'sischilar umumiy yig'ilishga shaxsini tasdiqlovchi hujjat va yozma ishonchnoma asosida qatnashadi. Yuridik shaxs nomidan berilgan ishonchnoma qonun hujjatlarida

belgilangan tartibda, jismoniy shaxs nomidan berilgan ishonchnoma notarial tartibda tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Ta'sischilar yig'ilish bo'yicha qo'shimcha axborot, unda ko'riladigan masalalar ro'yxati va boshqa ma'lumotlarni Samarqand shahri R.Hoshimov ko'chasi, 26-uyda joy-lashgan jamiyat ma'muriy binosidan yoki ushbu telefon raqamlarga murojaat qilgan holda olishlari mumkin.

Telefon: +99894-605-88-07, +99893-995-35-21.

JAMIYAT MA'MURIYATI.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloevna notarial idorasida marhum Yaxyayeva Ugulga (2013-yil 11-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Asadov Sharifkulga (2020-yil 28-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloevna notarial idorasida marhum Yaxyayeva Ugulga (2013-yil 11-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

HAQIQIY EMAS DEB TOPILSIN

"Uptok" va "Geolservis" ochiq aksiyadorlik jamiyatlarining mulklari uchun Davlat mulki qo'mitasi Samarqand viloyati bo'yicha hududiy boshqarmasining 2000-yil 29-martdagi 115-P-son buyrug'iga asosan, "Samgeoltex-servis" ochiq aksiyadorlik jamiyatiga 2000-yil 4-mayda berilgan 185-raqamli mulkiy huquqni tasdiqlovchi davlat orderining asl

nusxasi yo'qolganligi sababli haqiqiy emas deb topilsin.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi.

BEKOR QILINADI

Past Darg'om tumanidagi "SHUXRAT TRANS AZIYA OMAD" mas'uliyati cheklan-gan jamiyatining (STIR: 309701308) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sa-babli bekor qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOT!

Fuqaro Maxmudov Bobur Baxodirovichning haydovchilik guvohnomasi (AF № 0018745 2018-yil 4-avgustda Samarqand viloyati IIB YXXB RIB tomonidan berilgan) tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99850-500-65-65.

↓ *Qatag'on qurbonlari xotirasi*

11263 JINOIY ISH

raqamli

1938-yil 17-yanvarda O'zSSR NKVDsi Samarqand sektori boshlig'ining yordamchisi, Davlat xavfsizligi katta leytenanti Smirnov Obid Hamidovga nisbatan o'chilgan 11263-raqamli tergov ishi hujjatlari bilan tanishib, 1906-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan, ayni paytda Samarqandda istiqomat qilayotgan va viloyat "Lenin yo'li" gazetasi muharriri bo'lib ishlayotgan bu insonni hibsga olish haqida qaror qabul qiladi. Uning bu qarorini 23/1-1938-yilda O'zSSR Ichki ishlar xalq komissari, Davlat xavfsizligi mayori Apresyan va NKVD Samarqand sektori boshlig'i, Davlat xavfsizligi katta leytenanti Kalmikov, 24/1-1938-yilda O'zSSR prokurori Sheyndlin tasdiqlashadi.

Ushbu jinoyat ishi hujjatlarida ko'rsatilishicha, Obid Hamidovga "Samarqanddagi mavjud aksilinqilobiy qo'zg'olonchilar guruhining faol a'zosi, ushbu tashkilotning topshiriqlarini bajarib kelgan shaxs", degan ayblar qo'yilib, unga nisbatan O'zSSR JKning 67, 57-1 moddalari qo'llanilgan edi.

1938-yil 8-fevralda tergovni olib borish topshirilgan NKVD Samarqand sektori, 3-bo'limi boshlig'i yordamchisi, Davlat xavfsizligi kichik leytenanti Arzamashev bu ayblovlar ustiga yana "Vatanga xoinlik qilib, quroli qo'zg'olonni tayyorlashda faol ishtirok etgan", degan qo'shimchalar kiritib, uni NKVD Samarqand sektorining ichki qamoqxonasida saqlash bo'yicha ilgari chiqarilgan qarorni o'z kuchida qoldiradi.



O'sha yilning 28-yanvarida uning Samarqand shahar Sklyanskiy ko'chasi, 16-uydagi xonadonida, 29-yanvarda "Lenin yo'li" gazetasi tahririyatidagi ish xonasida guvohlar ishtirokida tintuv o'tkaziladi. Lekin bu tintuvlar NKVD xodimlariga uning aksilinqilobiy qo'zg'olonchilar guruhi a'zoligiga oid dalillarni topishda hech qanday natija bermaydi.

Hibsga olingan paytda to'ldirilgan dalolatnomaga ko'ra, uning qaramog'ida xotini – 24 yoshli Rajaboy Jabborova va uch nafar yosh bolalari bo'lgan. Bundan tashqari, Moskva davlat universitetida o'qiyotgan 30 yoshli ukasi Zohid Hamidov, Toshkentda yashovchi 24 yoshli ukasi Fuzail Hamidov borligi ham qayd etilgan.

1938-yil 29-yanvarda o'tkazilgan birinchi tergovda u o'zining hech qachon qandaydir "aksilinqilobiy qo'zg'olonchilar guruhi a'zosi" bo'lmaganligini va bunday tashkilot borligini bilmasligini ta'kidlaydi. 15-fevraldagi tergovda ham aynan shu hol takrorlanadi. SamDU rektori bo'lib ishlagan va "xalq dushmani" sifatida hibsga olingan Hikmat Fayzullayev, "aksilinqilobiy qo'zg'olonchilar" tashkiloti a'zosi, deb topilgan Abdullajon Rahimovlarning ko'rsatmalarida Obid Hamidovning Samarqanddagi aksilinqilobiy qo'zg'olonchilar tashkiloti a'zosi ekanligi aytilgandi. Bu odamlardan ushbu tergov ko'rgazmalari qanday qilib va qay usulda olinganini taxmin qilsak-da, lekin tergovchi ulardagi chalkashliklarga ham etibor bermay, Obid Hamidov ustidan ko'proq dalil va hujjatlar to'plashga intilib, dalolatnomaga kiritavergan.

Masalan, Hikmat Fayzullayev 1937-yil 12-dekabrda tergovda SamDUda ishlamaydigan Obid Hamidovni negadir "universitet ilmiy xodimi", deb ko'rsatsa, Abdullajon Rahimov uni 1937-yil 14-dekabrda tergovda Kaganovich nomli kolxoz partiya tashkilotchisi, deb ataydi. Holbuki, O.Hamidov o'z qo'li bilan yozgan tarjimai holining biror bir joyida na "universitet ilmiy xodimi", va na Kaganovich kolxozida partiya tashkilotchisi bo'lganini eslatmaydi. Ehtimol, kolxozga vakil bo'lib borgandir. Tergovchi Samarqand viloyati "Lenin yo'li" gazetasi tergov dalolatnomasiga "Samarqand rayonida chiqadigan gazeta", deb kiritadi.

Bundan tashqari, H.Fayzullayev O.Hamidov aksilinqilobchilar tashkilotiga Umarov tomonidan jalb qilingan, deb ko'rsatma bersa, Z.Sattorov 1938-yil 26-yanvardagi tergovda uni Samarqand shahar partiya qo'mitasi birinchi kotibi Hojimetov tarafidan ushbu guruh safiga tortilgan, deydi. 1938-yil 27-oktabr kuni NKVDning Samarqand sektori, 3-bo'lim boshlig'i yordamchisi Zaturanskiy tomonidan yozilgan tergov xulosasida O.Hamidov aksilinqilobchilar guruhi a'zoligiga SamDU xodimi Rahmatulla Malin tomonidan

tortilgan, deb qayd qilinadi.

Mana, O.Hamidovning o'zi tergovchiga aytib yozdirgan tarjimai holidan parchalar: "Men 1906-yilda Toshkent shahrida quruvchi-ishchi oilasida tug'ilganman. 1918-yilda otam vafotidan so'ng bobom qo'lida tarbiyalandim. 1920-1926-yillarda internatda o'qidim va yashadim. Shu yerda yashab, 1926-yilda pedtexnikumni ham tugatdim. Shundan keyin maorif xalq komissarligi meni Samarqand shahriga, 9 oylik pedagogika kurslariga o'qituvchi qilib yubordi. 1927-yilda Samarqand pedakademiyaiga o'qishga kirdim va uni 1930-yilda tugatdim. Shu yillar davomida pedtexnikumda o'quv bo'limi mudiri bo'lib ishladim. Keyinchalik chorvachilik texnikumida shu vazifada xizmat qildim. 1931-yilda Toshkentga chaqirilib, Yer-suv xalq komissarligida dehqon yoshlari kurslarining rahbari etib tayinlandim. 1932-yilda yana Samarqandga, agrokolxoz institutiga o'quv bo'limi boshlig'i qilib yuborildim. 1933-yilda Toshkentdagi Marksizm-Leninizm institutiga ishga tayinlandim. 1935-yilda Samarqanddagi Kommunistik oliy o'quv yurti direktori vazifasiga yo'llashdi. 1937-yil boshida yana agrokolxoz institutiga ishga o'tdim. Ko'p o'tmay "Lenin yo'li" gazetasi muharriri etib tayinlandim".

Ayblariga iqror qilish uchun NKVD xodimlari uning boshiga ne kunlarni solishgani bizga qorong'i. Lekin nima bo'lganda ham o'z fikrida sobit turdi va aksilinqilobiy-qo'zg'olonchilar guruhi a'zosi, degan barcha ayblovlarini rad etdi. Bunday hol bir yarim yil davom etdi. Tinimsiz tergov va tazyiqlar uni holdan toydirsa ham fikridan qaytmadi.

1938-yil 26-aprelda NKVD Samarqand sektori boshlig'i yordamchisi, Davlat xavfsizligi katta leytenanti Smirnov, NKVDning Samarqand viloyati boshqarmasi, 3-bo'limi boshlig'i yordamchisi, Davlat xavfsizligi kichik leytenanti Arzamashev to'ldirgan ayblov xulosasida uning ishini SSSR NKVDsi huzuridagi alohida kengash e'tiboriga havola etish lozimligi aytilgan edi.

1938-yil 15-mayda Samarqand viloyati prokurorining yordamchisi ushbu jinoyat ishi hujjatlari bilan tanishib, o'z xulosasini yozadi: "Tergov materiallarini ko'rib chiqib, ularni hech qanday jiddiy asosga ega emas, deb topdim va zudlik bilan O.Hamidovni hibsdan ozod qilish hamda ushbu jinoyat ishini harakatdan to'xtatish lozimligi haqidagi masalani qo'yaman".

Ha, o'sha og'ir damlarda ham NKVD tazyiqidan cho'chimay, qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash, o'z fikrini dadil aytishga qodir prokuratura xodimlari oz bo'lsa-da, topilardi...

1939-yil 27-mayda (bu paytda kelib NKVDning Samarqand viloyati boshqarmasi sobiq boshlig'i Kalmikov, uning qo'l ostida ishlaganlarning ko'pchiligi ham ishdan olingan edi) Davlat xavfsizligi kichik leytenanti Kolpakov Obid Hamidovga nisbatan o'chilgan jinoyi ishni qayta tergov qila boshlaydi. U o'z xulosasida O.Hamidovga qo'yilgan biror-bir ayb o'z tasdig'ini topmaganligini, hatto ko'rsatma berganlar yuzlashtirilib, dalolatnoma tuzilmaganligini, O.Hamidovga qarshi guvohlik berganlar bularni tazyiq ostida majburan aytishganini tan olib, ulardan voz kechishini bildirayotganligini yozadi. Shunday qilib, qariyb bir yarim yil davom etgan azobli kunlardan so'ng gazeta muharriri O.Hamidovga nisbatan o'chilgan jinoyi ish harakatdan to'xtatiladi hamda u ozodlikka chiqadi.

Afsuski, uning shundan keyingi taqdiri haqida hozircha hech qanday ma'lumotlar topolmadik.

Muzaffar MUQIMOV,
SamDU tuzilmasidagi Qatag'on
qurbonlari xotirasi viloyat
muzeyi direktori.



Ochig'ini aytsam, men qachonlardir Oygul opa haqida maqola yozishim mumkin, deb o'ylamaganman. Ammo talabalik davrimdan bilamanki, uning she'rlaridagi tashbehar qanchalar javlon urmasin, tuyg'ulari doimo sokinlikni, inson umridagi ravonlikni tutib qolaveradi. Meni Oygul opaga bog'lagan hayrat va havas ushbudir: Moskvada Adabiyot institutida besh yil tahsil olish va baribir ham tafakkur tarzida, fitratida va ayniqsa ijodda risoladagi sof o'zbek ayoli, sof o'zbek shoirasi bo'lib qola bilmoqlik va bu jarayonning o'ta tabiiy ro'y berishi.

Qorong'ulikni anglagan inson yog'duni chuqur his eta olganidek, men Oygul opa she'riyatidagi sokinlikni yanada ko'proq, oydinroq his etdim. Uning she'rlarida inson butun borlig'i bilan yashaydi. Har bir she'ri go'yo shunday deydi: "kim bo'lsang ham, taxayyuling osmonlarni yorib yuborsa ham o'z ildizingdan, tuprog'ingdan, makoningdan ayrilma".

Endi shamol bilan qolaman
Olislarga olib ketadi...
Endi osmon bilan qolaman,
Yomg'irlar, qordami, selda
Onasini kutgan bolaman,
Osmon ruhi hamrohdir menga.
("Ko'ngil kengliklari",
2019, 21)

deb kuylayotgan shoir a jazolayotgan onasining bag'riga battar yopishayotgan bolaga o'xshash sadoqat sohibasi. Uning o'z shaxsiyatidan boshqa begona, soxta xususiyatni ijodida uchratmaymiz. U yo'llarni, osmon ruhini qalbiga qamagan tuproq bolasi.

Endi yo'llar bilan qolaman
Tog'-toshli, qirli, adirli.
Soz tuproqqa quloq solaman,
Nafaslari jonbaxsh, atirli!
Shoiraning she'rlari sirtidan o'ta tinch daryoga o'xshaydi, ammo ichida po'rtanalari ko'p. Uning lirik qahramoni ne-ne tashbehi qoyalarga uriladi-yu yana kema tashlagan langar atrofiga qaytib, xulosada o'sha sokinlikni tutib qoladi. Hatto ishq kabi qadim dramatik mavzu haqida kuylansa ham. "Ishq" she'ridan parcha:

Bu dunyo beqiyos, bu dunyo rangin,
Ruhimda shovillar yashil yaproqlar,
Nechun kuz havosi tuyular g'amgin,
Nechun olis xotir meni so'roqlar.

Maktublar yozaman, torli maktublar,
Balkim umrim bo'yi, umrimdan uzun,
Har bitta so'zimda gullar ochilar,
Visoli iforli, hijroni mahzun.
Maktublar yozaman, maktubimsan, ishq,
Nigohim yetmagan dil tubimsan, ishq.

Nazarimda, bu she'rda uzundan-uzun, mahzundan-mahzun armonli muhabbat bor. U "nigoh yetmas, dil tubi"da. Shoir a bizga ko'rsatgan muhabbatning "bir uchi" ham uning naqadar uchqur ekanligini namoyon eta oladi. Ammo bu muhabbat dunyolarga o't qo'yamaydi, u hech kinga xalqaqit qilmaydi. U bir muayyan Ayolning, shoiraning, lirik qahramonning muhabbati. Bu muhabbat "dil tubi"ga cho'kadi, xolos. Shoiraning "ishq"i ham sokin. Shaxs va shoir uyg'un birlikdir.

Nazarimda, har qanday ijodkor o'z xarakteriga mos yozadi. Jumladan, bizning shoiramiz o'zidagini – borini to'kib soladi. Bo'yab bejamaydi, doimo rost so'zlaydi. Ma'lumki, ijod mahsuli orqasida ijodkor shaxsi turadi. Oygul opani taniganimdan bilamanki, u oddiy suhbatlarda ham biror hodisani erinmay "bolini chiqarib" tasvirlaydi. Ijodda ham, hatto tarjimaga emas, originalga o'xshagan tarjimalarida ham shu sokinlikni ko'rasiz. Hozirgi yangi zamon tarmoqli tafakkur yuritish va xayol surish davrida "to'g'ri chiziqli

Sirtidan tinch daryo...

Oygul Suyundiqova ijodiga chizgilar

fikrlash", sokinlik balki "sekinlik"ni, shiddat yetishmayotganligini ko'rsatishi mumkin. Ammo vaqt o'tib, haqiqatga yaqinlashayotganing sayin hamda hayot "shira"sining ta'mini sezgandan so'ng sokinlik va go'zallikni anglab ilg'ab, oluvchi adabiyotni istab qolarkan, odam. Oygul opa "Men dunyo izladim" deb yozsa ham o'z qadrdon muhitidan yiroq ketmaydi, o'zi bilgan dunyosini "sizlagan", qadriga yetgan holda ortga qaytadi, o'zidan yiroq ketmaydi. "Qaytish" she'rida ifodalagandek, uni "osmon chorlaydi, quyosh kutadi", lirik qahramon esa "tug'ilgan uy sog'inchini" yuragiga joylab, "samoda ko'rmagan husn... mehr, sehr"ni "tug'ilgan uyidan topadi, albat!" Chunki, shoir a shaxsi "bir qushcha misoli qaytmoqda hayrat" bo'lib. Ajoyib-a, xuddi "Alkimyogar" qahramoniga o'xshab izlaganing o'zingdan chiqsa, ne baxt. Shundaymikin? Shunday. Ayniqsa, hayot davomiyligi yelkasida bo'lgan o'zbek ayoli uchun! Oygul opa o'zbek ayolining yorqin timsoli ifodachisidir.

O'zimcha shoir a uchun she'riy tavsif izlayman. "Ruhli otash istagan" titroqdagi inson jim ketishi mumkinmi? Ha, faqat u Oygul bo'lolsa va u doimo yoshlikda ham, ulug' yoshda ham, borlikda ham, to'qlikda, yo'qlikda ham bir xil bo'lolsa...

Yo'lak bo'ylab ketayapman jim,
Faqat ruhim istaydi otash.
Daraxtlardan ohista uchib,
Katllarimga qo'nadi yaproq,
Onam kabi boradi quchib,
Xotirlar va hazin titroq.
Uning har bir she'rida Vatan bor, ona bor, tuproq bor, iliqlik bor, yog'du bor. Ha, Abdulla Ulug'ov yozganidek, "Uning she'rlarida tong, shamol, osmon, quyosh, oy, to'liqin, yomg'ir, shudring, gul, dil, yog'du, dala, qir, soy, tog', daraxt, yo'l, qush tayanch so'z bo'lib keladi".

Kunlar rangin, tunlari oydin,
Yulduz kechib o'todur soydin.
Ko'nglingga soz sozlagin naydin,
Vataningni kuylab o't, bolam.

"Samarqand" she'rini yozganda "ko'ngil"ni qayta-qayta tilga oladi shoir a. Bu ham ko'ngildagi faxrning ulug'ligidan, ham titroqning zo'riligidan: "Ko'nglimda nur cho'qqisi baland, Ko'nglimdagi titroq - Samarqand".

Albatta, "Yurt qo'shiqlari" (sonetlar) haqida eslamay o'tolmaymiz. Shoir a osmonni "Yerga olib" tushadi, hayratdaman men ham - uni ayolga o'xshatadi. Buni ayolni tasvirlagandek oddiy aytadi. "Suv seplab" iborasi o'sha ayolni sizga ko'rsatishga qodir. Tinglang:

Osmon yer yuziga suv seplab chiqdi,
Shamol etagidan to'kildi xayol.
Qarasam, o'xshashib ketamiz juda,
Osmon - qo'li ishdan bo'shamas ayol.
Oygul opa "Ko'nglim tonglari" she'rini Adabiyot institutidagi ustozlari, do'stlariga bag'ishlasa-da, unda o'z asliyatini ulug'lab satrlar bitishini unutmaydi:

"Dunyo tillarida tingladik bir-bir, Dunyo she'riyatini yoniqib, yonib. G'azallar o'qidim - Navoiy, Bobur, Dunyo shoiralari ketdi uyg'onib" deydi.

Bu kamtar shoir a, tarjimon, izdihomlardan o'zini chetga tortgan ayol birinchi ko'rganimdayoq meni qiziqtirib qolgandi. Qancha iltifot qilmay, meni bilmadi, ishonmadi, o'zini tortdi. Tushunaman, uning o'z kompleks, o'z "shaxsiy chegara"lari bor. Keyinchalik, navbatdagi uchrashuvlarda bir-birimizni tushuna oldik. Oygul opam dunyo adabiyoti to'g'risida teran bilimga ega. Axir adabiyot, avvalo, eng katta ilm, keyin tinimsiz mutolaa, va undan keyin minglarcha badiiy san'atlar, kategoriyalar, tashbehar va ijodiy yo'nalishlar...

Oygul opa bilan suhbatlar quraman, uzundan-uzun tasvirli hikoyalarni, boshqarlarga berayotgan gurunglarini tinglayman. "Onam Qo'shrabotdan, Pangatdan, deydi. "Pangatning ma'nosini nima ekan?" deyman, shoir a meni eshitmaydi, suhbatini davom ettiraveradi, umrida biror marta ko'rmaning Pangatini maqtayveradi. "Juda go'zal, tog'li, suvli, ko'm-bo'ko makon ekan. Onam



Payariqqa ammamga kelin bo'lib tushib ketgandan so'ng biror marta ham Pangatga bormagan ekan. Biroq onamga o'xshab Payariqqa kelin bo'lib tushib kelgan xolam doim borib-kelib turganlar. Har gal bizga Pangat haqida gapirib berar, u yoqdan mevalar olib kelardi", deb hikoya qiladi entikib.

Xolasiga o'ta havas qilayotgani sezilib turardi. Ammo bular barisi o'timishda qolib ketgan, ona, otam ham, Pangatga ko'p bora qatnagan xola ham endi bu dunyoda yo'q. Men esa qiziquvchanligim tutib, nuqul so'rayman: "Nega onangiz bormaganlar biror marta ham? Nahotki qiziqmadingiz? Balki buning sababi bordir va uni yozsangiz, ijodin-gizda yangi bir gul-doston paydo bo'lar", deyman. O'z hikoyasiga berilib ketgan Oygul opa menga e'tibor bermagandek tuyuladi. Ammo savollarimga e'tibor bermasligi mumkinmas. Men esa Pangat va turmushga chiqib ketgan, keyin yurtini sog'inib, biror marta bormagan ayol haqida o'ylayveraman. Go'yo bu yerda bir sir bor-u, ham otam, ham ustoz hurmati Oygul opa haqida na yozgisi, na aytgisi kelmasdi. Biroq yillar o'tgan sayin bu savollar o'ziga ham go'yo tinchlik bermasdi. "Ko'ngil kengliklari" kitobini varaqlashga, o'sha qiziq va o'ta sirli ko'ringan savolimga javob izlashga tutinaman.

Banogoh "Enamning xirgoyisi" she'riga ko'zim tushadi.

Pangat soyniy suvi shirin, balig'i bordir,
Hazir bo'lg'in balig'ining qiltig'i bordir...
O'shal yigit - o'shal g'arib bolani siz
Faqat menga oshiqliqin bilavering.
Bu qirlarning suvi shirin soyi bordir,
Bir g'aribning qarmoq otgan joyi bordir.

Enamning xirgoyisi... Eh, tangri yuqtirgan sevgi kabi buyuk ne'matdan hazar qilgan, or bilgan bizning enalimiz...

Enajon, meni kechiring, ochliqligim uchun, zamonam ochliqligi uchun. Siz bu sirni ardoqladingiz, qizingiz necha o'n yillardan buyon so'ramoq bo'lib portlash darajasiga yetsa-da, yashirishga harakat qildi. Ammo mening mazkur she'rdan chiqargan xulosam, xayollarim – ilk sevgidan, kimdir uni qachonlardir sof sevgani tufayli Pangatni unutgan, unutib yashashga intilgan, degan taxminlarim yuzaga chiqmay iloji yo'q! Sizning qalbingiz, bu qalbning "tub"ida cheksiz ishqni asraganingiz va o'z yorinigiza sadoqatni ilk sevgidan, kindik qoni to'kilgan yerga bo'lgan muhabbatdan ustun qo'yganingiz – yuksakdan-yuksak tarbiya va o'rnak erur, bu bizga kerak, Enajon.

Bularni yozaypman-u, baribir, Oygul opa e'lon qilishimga ruxsat bermaydi, deb o'ylayapman. Baribir, chiqaraman, har qanday buyuk fazilat tavsifi avlodlarga xizmat qilishi kerak...

Shunday. Oygul opa shaxsiyatidagi shoir lirik qahramon asli shoiraning o'zidan bir qadam ham yiroq emas va, inchunin, shoir a qalami faqat rost so'zlay-so'zlay yashamoqda. Bu gaplarim shoiraning hali birgina kitobdagi va gazetada chop etilgan ayrim she'rlari haqidadir. "Sirtidan tinch daryo" ichida hali qanchalar durlar bor, turkum marvaridlar, tarjima-gavharlar bor.

Gulshan RAHIM,
filologiya fanlari nomzodi.

20-AVGUST

Begmamat ESHQUVATOV – 1938-yilda Past Darg'om tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi.

28-AVGUST

G'ulomjon BOYMURODOV – 1969-yilda Bulung'ur tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan aloqa xodimi.

Gazetaning navbatdagi soni 2024-yil 21-avgust, chorshanba kuni chop etiladi.

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

G.MO'MINOVA.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun
QR-kodini telefoningiz
orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda
narxi kelishilgan holda

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 688 nusxada chop etiladi. Buyurtima 430. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'OLONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

